



UDC: 373.1

Temur-Malik YAXSHIBOYEV,
Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: temurbek5777@gmail.com

GulDPI p.f.b.f.d. (PhD) M.Niyozov taqrizi asosida

DEVELOPING TECHNOLOGIES OF PUPILS CREATIVE ABILITY

Annotation

This article describes the psychological, pedagogical, and socio-economic factors of developing students' creative competences. The theoretical structure and methods of the development of creative thinking, students' creativity-based design process are shown.

Key words: creativity, creator, thinking, initiative, knowledge, skill, activity, process, creative potential, project, scientific inquiry, activity, heuristic, education, epistemological, standard, core, social.

ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В статье рассмотрены психолого-педагогические и социально-экономические факторы развития творческих компетенций студентов, показаны теоретическая структура и методы развития творческого мышления, творческого процесса проектирования студентов.

Ключевые слова: творчество, творец, мышление, инициатива, знание, умение, деятельность, процесс, творческий потенциал, проект, научное исследование, деятельность, эвристика, образование, гносеологический, нормативный, стержневой, социальный.

O'QUVCHILARDA IJODKORLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarda ijodkorlik kompetentsiyalarini rivojlantirish psixologik, pedagogik hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillari haqida yoritilgan. Ijodkorlik tafakkurini rivojlantirish, o'quvchilar ijodkorlik asosida loyihalash jarayonining nazariy tuzilmasi va usullari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, ijodkor, tafakkur, tashabbuskorlik, bilim, ko'nikma, faoliyat, jarayon, ijodiy potensial, loyiha, ilmiy izlanuvchanlik, faollik, evristik, ta'lim, gnesologik, standart, yadro, ijtimoiy.

Kirish. Mustaqil Respublikamizda shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti ta'lim tizimi oldiga jahon standartlari talablariga javob bera oladigan, salohiyatli, chaqqon (harakatchan), ishlab chiqarish va ijtimoiy sohadagi yangiliklarni faol qabul qila oladigan va yarata olishga qobiliyatli ijodkor mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'ydi. Bunday mutaxassislar kasbiy bilimlarning zaruriy "yadro"sini o'zlashtirishdan tashqari, ijodkorlik, tashabbuskorlik, ilmiy izlanuvchanlik, mustaqillik, yangilik yarata olish, tanqidiy fikrlash, masalalarni ko'p variantda echa olish va ularni ob'ektiv baholash ko'nikmalarini egallagan bo'lishi kerak.

Ijodkorlik yoki ijodiy faoliyat katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, yangi, birinchi marta yaratilayotgan, o'xshashi bo'lmagan mahsulot beruvchi faoliyat. Bu haqda quyidagi fikr qayd etilgan: "Inson faoliyati o'z mohiyati, amalga oshirilish xarakteri va ijtimoiy ahamiyati bo'yicha ijodkorlikdir".

Odatda, kattalarning ijodkorligi – deganda yangi, o'xshashi bo'lmagan mahsulot, ya'ni ijtimoiy va ob'ektiv ahamiyatga ega moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga olib keluvchi faoliyat tushuniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maxsus adabiyotlarda esa, ijodkorlik tushunchasining u yoki bu talqini keltirilishi bilan bir qatorda, uning tabiati, ijodiy jarayon tuzilishi va inson ijodiy qobiliyatlarining shakllanishi haqida turli fikrlar mavjud. Bu erda "ijodkorlik" tushunchasini talqin etishda uning ko'p qirraliligiga e'tibor qaratish lozim. Chunki, ijodkorlik tushunchasi "faollik", "faoliyat", "jarayon", "faoliyat ko'rinishi", "faoliyat tipi", "faoliyat shakli" sifatida

qaraladi. Uning boshqa tomoni esa "ijodiy potensial", "ijodiy qobiliyat", "ijodiy faollik", "ijodiy munosabat", "ijodiy faoliyat", "ijodiy mehnat", "shaxs ijodi" kabi tushunchalarda aks etadi.

V.G.Razumovskiy esa ijodkorlikni quyidagicha ta'riflaydi: "ijodkorlik - bu insonning borliqni bilishga yo'naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo'lib, uning natijasida yangi, o'xshashi bo'lmagan, ilgari mavjud bo'lmagan, jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar, asarlar va boshqa shu kabilar yaratiladi".

Ijodiy faoliyatning falsafiy nazariyasi va uning ijtimoiy tabiati N.F.Xoroshko, A.T. Shumilin kabi olimlarning ishlarida qaralgan bo'lib, ular asosan inson ijodiy faoliyatining dunyoqarashi jihatini, gnesologik va umummetodologik xarakterdagi muammolarini o'rgangan. Ularning fikricha, ijodkorlik va inson mohiyati, akslanish va ijodkorlik, uzoqlashish va ijodiy qobiliyat, ijodkorlik va amaliyot ijodiy jarayonning o'ziga xosligini aniqlovchi asosiy kategoriyalar hisoblanadi. Dialektik materializm esa ijodkorlikni xarakterlovchi asosiy kategoriya bo'lib, materiyaning ommaviy xossasi sifatida akslanishi hisoblanadi. N.F.Xoroshko fikricha, "bunday o'zaro ta'sirlashish natijasida doimo vaziyat vujudga keladi, ya'ni paydo bo'lgan yangi tashkil etuvchi boshqa ob'ekt bilan o'zaro ta'sirlashishni boshlaydi, natijada avvalgisi bazasida, ammo unga nisbatan yuqori darajada yangi tashkil etuvchi paydo bo'ladi va natijada quyidagi ketma-ketlik paydo bo'ladi: "harakat-rivojlanish-o'zini mustaqil tashkil etish-ijodkorlik-faoliyat-madaniyat". Madaniyat sub'ektning moddiy va ma'naviy

qadriyatlarini anglash va yaratish majmuasi sifatida uning ijodiy faoliyatining yakuniy mahsuloti bo'lib yuzaga chiqadi".

Bizning fikrimizcha "ijodkorlik" borliqni bilish va o'zgartirishning ijtimoiy-tarixiy jarayonida insonning jismoniy va ruhiy kuchini, uning qobiliyati va ehtiyojini mustaqil ishlab chiqarish va mustaqil rivojlantirish sifatida ishtirok etadi. Chunki bu faoliyat amaliy yaratuvchanlik va bilishning tarixan to'plangan tajribalari va uning inkori, ya'ni rivojlanish jarayonida chegarasiz o'z-o'zini yangilashi o'rtasidagi nomutanosiblikni o'zida saqlaydi.

Xo'sh ijodkorlik tafakkuri nima? Uni qanday rivojlantirish mumkin?

Tafakkur falsafasi, psixologiya hamda pedagogika kabi fan sohalarining muhim tushunchalaridan biri bo'lib, unga olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan.

Bizning fikrimizga ko'ra, V.Karimova tomonidan berilgan ta'rif ijodkorlik tafakkuri atamasi mohiyatini to'laroq yoritadi: "Tafakkur – inson ongining bilish ob'ektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasidagi murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir". Shuni qayd etish lozimki, narsalar va hodisalar o'rtasidagi sabab va natija bog'lanishlarini hamda o'zgarish va taraqqiyot qonunlarini bilganligimiz sababli, biz hozir bo'lmagan, lekin bo'lishi mumkin bo'lgan narsa va hodisalarni oldindan aytib bera olamiz yoki yarata olamiz.


Biz amalga oshirgan ijodkorlik, tafakkur tushunchalari hamda ijodkorlik tafakkuri tushunchalariga berilgan ta'rif va tasniflarning tahlili asosida umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari xususiyatlarini to'laroq aks ettiruvchi o'z ta'rifimizni taklif qildik:

Ijodkorlik tafakkuri- bilish ob'ektlari hisoblanmish narsa, buyumlar hamda umumiy holatda olingan yashash muhitining shakli sifatleri hamda tashqi ko'rinishdagi har tomonlama aloqalarni tuzishga qaratilgan; ijodiy faoliyatni inson ongida aks ettirish shaklidir.

O'quvchilarda ijodkorlik tushunchasini rivojlantirish murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uni o'quvchilar ongiga singdirishda nazariy va amaliyotning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi didaktik prinsipga amal qilinishi mazkur jarayonning samarali amalga oshirish imkonini beradi. Odatda buyumni baholaganda uning qiymati, foydasi, go'zalligi e'tiborga olinadi, biroq amaliy foydasi, estetik kechinmalari, shaxsiy psixologik ta'siri, rangi, ranglar uyg'unligi, hissiyotga ta'siri, nimadan tayyorlanganligi, boshqa buyumlar bilan uyg'unligiga ahamiyat berilmaydi.


Tahlil va natijalar. Buning uchun ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilganlik, ilmiy yangilikka intilish, ijodkorlik, shaxs psixologiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi shakllar orqali hissiyotga ta'sir ko'rsatish kabi muammolarning echimini topishni engillashtiradigan ijodkorlik tafakkurini rivojlantirishda pedagogik-estetik hamkorlikning samarasini oshirish talab etiladi.

1-shakl. Ijodkorlik tafakkurini rivojlantirish.



Ijodkorlik asosida loyihalash ishi oddiy loyihalashdan farq qilib, bu funksional vazifasini inobatga olgan holda, uni ixcham, xizmat uchun qulay va arzon bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Ijodkorlik loyihalarining jamiyatda ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, tarbiyaviy ahamiyati katta. Ijodkorlik

asosida loyihalash uchun o'quvchilarda ijodkorlik, bilim, ko'nikma, malaka va ijodkorlik tafakkurini rivojlantirishimiz zarur. O'quvchilar ijodkorlik asosida loyihalash jarayonining nazariy tuzulmasini 2-shakl orqali tasavvur qilishimiz mumkin.



2-shakl. O'quvchilar ijodkorlik asosida loyihalash jarayonining nazariy tuzilmasi

O'quvchilar ijodkorlik asosida loyihalash jarayonini amalga oshirishda quyidagi narsalarni bilish lozim:

- loyihalanayotgan mashina yoki uskunaning qanday sharoitda ishlashi;
- loyihalanayotgan buyumdan foydalanish samaradorligini aniq (yoki qisman) baholanishi;
- loyihalashtirilayotgan buyum nima maqsadda xizmat qilishini bilishi;
- boshqa qanday variantlari bo'lishini tasavvur qilishi;
- iqtisodiy talablarning qo'yilishini izohlay olishi.

Texnologiya ta'limi jarayonida buyumlarning ijodkorlik loyihalarini bajarishda o'quvchi berilgan topshiriqdan buyumning vazifasini, uning umumiy tuzilishini, tayyorlashning texnologik imkoniyatlarini va boshqa buyumlar bilan aloqasini bilib oladi.

Ushbu izlanishlardan kelib chiqib o'quvchilarning ijodkorlik loyihalarini bajarish bo'yicha faoliyati samarali bo'lishi uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- ijodkorlik loyihalarini bajarishga oid o'quvchilar uchun topshiriqlar, ma'lumotlar hamda o'quvchilar uchun ko'rgazmali qo'llanmalar va uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish;
- ijodkorlik asosida loyihalash bo'yicha o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- ijodkorlik asosida loyihalash jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish;
- o'quvchilarda ijod va ijodkorlikka bog'liq kasblarga qiziqish uyg'otish, ularning ijodkorligini rivojlantirish orqali etuk shaxslarni tarbiyalash;
- o'quvchilarning ijodkorlikka oid egallashlari lozim bo'lgan bilim va ko'nikma hajmi, sifatini belgilab olish hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimotini amalga oshirish;
- ijodkorlik loyihalarini amalga oshirishning mazmuni, tuzilmasi va tashkiliy asoslarini yangi axborot texnologiyalari vositasi orqali takomillashtirish.

Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda, texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilar ijodkorlik loyihalarini muvoffaqiyatli bajarishiga erishish hamda ularning dunyoqarashini boyitishda, ijodiy tafakkurini rivojlantirishda kompyuterdan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda axborot texnologiyasidan foydalanishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat.

- o'quvchilar axborotlarning noan'anaviy manbalariga murojaat qilish imkoniyatlarini ochib berish,

mustaqil fikrlash va ijodkorlik bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratish;

- o'quvchilar mustaqil ijod qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish va yasalayotgan buyumning turli variantlarini loyihalash, o'zgartirish kiritish hamda taqqoslash imkoniyatlarini vujudga keltirish;
- o'qitishda kompyuter texnologiyasini qo'llash orqali o'quvchi ongini o'stirish, ijodiy izlanishini rivojlantirish, yaratilgan buyum loyihalarining maqbullarini tanlash uchun qo'shimcha maslahat va ko'rsatmalar berish imkoniyatiga ega bo'lish;

- o'quvchilar kompyuter savodxonligini oshirish va ularning o'zlashtirish darajalarini baholashning qulay variantlariga ega bo'lish.

O'quvchilar kompyuterdan foydalanib ijodkorlik loyihalarini bajarishda quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

- loyihani qayta ishlash;
- loyihaga o'zgartirish kiritish;
- loyihani kompyuter xotirasida saqlash va kelgusida foydalanish;
- loyihani alohida qismini qayta kompanovka qilish va boshqalar;
- loyihaga yozuvlar kiritish;
- loyihani boshqa fayllarga ko'chirish;
- matnni tahrir qilish va boshqa imkoniyatlar mavjuddir.

Ushbu imkoniyatlardan to'laonli foydalana olish uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarining texnologiya ta'limi o'qituvchilari, axborot texnologiyalari yuzasidan quyidagilarni bilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- fan, texnika va madaniyatdagi axborot va kreativ jarayonlarni;
- zamonaviy axborot almashinish metod va usullarini egallaganligi;
- fanni o'qitishda, o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlariga oid bilimlarni rivojlantirishda kompyuter texnikasidan unumli foydalana olish;
- mavjud lokal va global tarmoq tizimlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi, internet tizimi va uning imkoniyatlaridan foydalana olishi;
- kompyuterlar yordamida matn hamda grafik muharrirlari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish, ijodkorlik loyihalarini bajara olishi;
- axborot texnologiyalarni amalga oshirishning dasturiy vositalari haqida tasavvurga ega bo'lishini;
- darslarni tashkil qilishda kompyuter qurilmalaridan ta'lim vositasi sifatida foydalana olishi;
- o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashgan tizimini o'z faoliyatida qo'llay olish;

- o'quv materiallari haqida axborotli ma'lumot tizimini bilishi va qo'llay olishni;
- o'qitiladigan fan ma'lumotlar bazasini yarata olish.

Shuni ta'kidlash kerakki bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirishni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki bu texnologiya yordamida fanlar bo'yicha turli mavzularni ko'rgazmali va tushunarli shaklda bayon qilish imkoniyati katta. Bu afzalliklarni o'z vaqtida tushunib etgan holda, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan o'quv dasturlarini tuzish va ulardan keng miqyosda foydalanish maqsadga muvofiq.


Texnologiya ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarini

tatbiq etish natijasida kasbiy munosabatlar samarali rivojlanishi kuzatiladi. O'quvchilar o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish, nazorat topshiriqlariga javob berish uchun o'tilgan mavzularni to'laroq o'zlashtirishga intiladilar.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarining o'rni quyidagicha izohlash mumkin.

- kompyuter vositasida loyihalashda vaqt tejiladi;
- o'quvchilarni mustaqillikka, mustaqil fikrlashga, o'zaro hamkorlikka o'rgatish mumkin.

Shunday qilib, bugungi kunda kompyuter vositasida o'quvchilar ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish tizimini 3-shaklda ko'rsatilganidek tasavvur etish mumkin.



3-shakl. Kompyuter vositasida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish tizimi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan mulohazalardan o'quvchilar ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish loyihalash jarayonida o'quvchilarning fazoviy tasavvuri kengayib borishi barobarida ularning ijodkorlik qobiliyatlari o'sishi uchun imkoniyatlar yaratadi. Buning uchun, misol tariqasida duradgorlik asboblari uchun quti loyihasini chizishni olib ko'raylik. Buyumni yasashdan oldin uning

texnik rasmini, eskizini chizishimiz lozim. Bu loyihani chiroyli, tez va sifatli qilib bajarishda kompyuterdan foydalanish samarali natija berishi kuzatiladi. Bunda o'quvchi kompyuterdan foydalanib mustaqil ravishda qutining namunaviy variantlarini chizishi, unga o'zgartirish kiritishi va shakl tushirish, turli ranglarda tasvirlash imkoniyatlariga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Djuraev R.H. va boshq. Pedagogika. - Toshkent. 2013. - B. 64.
2. Abduquddusov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. - T.: Fan, 2005. - 160 b.
3. To'raev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari sohasi pedagoglarining umumkasbiy fanlar integratsiyasida kasbiy kompetentligini shakllantirish. Ped. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD). diss. avtoref.-Toshkent. O'zMU, 2018. -B. 27.
4. Sharipov Sh.S. va boshq. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: Fan, 2011. - B. 72.
5. Sharipov Sh. S. Kasb-hunar ta'limida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirish. Monografiya. - Toshkent, Fan, 2005. -140 b.
6. Pedagogik ensiklopediya. - M.: 2002. - 550 s.
7. Шутенко, А.В. Методы проведения учебных занятий с использованием средств информационных и коммуникационных технологий /А.В. Шутенко [Электронный документ].- (<http://pedsovet.su/publ/26-1-0-841>). 05.04.2010.
8. Xasanova Sh.B. Elektron ta'lim resurslari tayyorlash va undan foydalanish tajribalari. Uzluksiz ta'lim. -Toshkent. 2017, №5. - B. 46-51